



BUXORO SHEVALARIDA MORFONOLOGIK O‘ZGARISHLAR

Asatullayeva Dilnavoz Jondullayevna,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15243844>

***Annotatsiya.** O‘zbek tili boshqa tillardan ko‘p shevaliligi bilan farqlanadi. O‘tgan tarixiy davr ichida o‘zbek shevalari to‘xtovsiz taraqqiy etdi. Ilmiy adabiyotlarda turkiy tillar ichida eng ko‘p shevalarga ega bo‘lgan til ekanligi ta’kidlanadi. Shubhasiz, o‘zbek tili lug‘at fondini oshirishga xizmat qiluvchi muhim ichki omillardan biri esa shevalardan so‘z olishdir. Ushbu maqolada Buxoro qarluq shevasida uchrovchi morfonologik hodisalar keltirib o‘tiladi.*

***Kalit so‘zlar:** sheva, dialekt, qarluq, lahja, morfonologiya, fonologiya, o‘zgarish.*

O‘zbek tilshunosligida shevalarni o‘rganish masalasi uzoqroq tarixni bosib o‘tgan bo‘lsa-da, keyingi 30 yil ichida bu yo‘nalishdagi ishlar ancha sustlashdi, lekin shevashunosligimizning bir tarmogi bo‘lgan lingvistik geografiya bo‘yicha qator ishlar paydo bo‘ldi [Turdialiyev A.X. Denov shevasini areal o‘rganish va til korpusiga joylashtirish. Avtoreferat.- Toshkent-2024]. Tizim sifatida o‘rganilgan o‘zbek tilida lison va nutqni farqlash, o‘zbek tilining sof turkona xususiyatlarini ochish bo‘yicha qator vazifalarning ko‘ndalang bo‘lishi ana shu dastlabki masalalarning hal etilishi natijasida sodir bo‘ladi.

Ma’lumki, fonema variantlari so‘z va morfemalar tarkibida uni tashkil etuvchi sifatida ishtirok etar ekan, u boshqa tovushlar bilan kombinatsiyalar hosil qilish jarayonida turli o‘zgarishlarga uchraydi. So‘z va morfemalar tarkibidagi har qanday almashinuvlar, avvalo, fonetik xarakterdadir. Bu esa bugungi kunda til strukturasi fonetik, leksik va morfemik sathlari mavjudligi haqida fikr yuritishga olib keladi [Bahridinova B.M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Morfologiya. Amaliy mashg‘ulotlar uchun qo‘llanma.- Qarshi: Nasaf-2008. – B. 32]. O‘zbek adabiy tili morfonologiyasi to‘g‘risida A.Nurmonovning tadqiqotlari bor, lekin morfonologik hodisalarga boy bo‘lgan o‘zbek shevalari bu ishga jalb qilinmagan. O‘zbek shevalari morfonologik tizimining o‘rganilishi shevalar fonetikasi va morfologiyasini keng yoritish imkoniyatini ta’minlashga xizmat qiladi. Sodda tilda aytadigan bo‘lsak, morfonologiya – ma’lum bir tilning fonologik xususiyatlaridan to‘liq olinmagan morfemalarning tuzilishi, fonemik tarkibi va o‘zgarish qonuniyatlarini, shuningdek, tilga xos bo‘lgan morfologik tabiat hodisalari yig‘indisini o‘rganadigan bo‘lim sanaladi [1:102-b.]

O‘zbek tilida agglyutinatsiya jarayonidagi quyidagi morfonologik holatlar e’tiborlidir:

o-a: ong-angla, ot-ata, son-sana;

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



a-o: tara-taroq, so‘ra-so‘roq;
i-u: sovi-sovuq; quri-quruq;
q-g‘: qiliq-qilig‘i, qiziq-qizig‘i;
k-g: tilak-tilagi, yurak-yuragi;
n-z: bizni-bizzi, sizni-sizzi;
n-t: otni-otti, toshni-toshti;
n-r: qorni-qorri, shaharni-shaharri;
n-p: gapni-gappi, qopni-qoppi [6:152].

Bunday misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin. Adabiy tildan tashqari shevalarda ham ushbu hodisaga misollar ko‘p uchraydi va bu hodisalarni aynan Buxoro viloyati shevalari misolida ko‘rib chiqamiz.

Buxoro shevalarida biz so‘zga qo‘shimcha qo‘shilganida aynan qo‘shimchada yuz beradigan morfonologik hodisalarni ko‘p uchratamiz. Masalan, *buzildi* so‘zi ushbu shevada *buzilli* tariqasida talaffuz qilinadi. Ya‘ni –l harfiga moslashib –di qo‘shimchasi –li tarzida talaffuz etiladi.

Bundan tashqari so‘z asosining o‘zida yuz beradigan hodisalarni ham ko‘p marta uchratsak bo‘ladi. Masalan, *jölkirā* so‘zini oladigan bo‘lsak, ushbu so‘zdagi o‘zgarish Buxoro viloyati G‘ijduvon tumanida o‘tkazilgan dialektologik ekspeditsiyada yoshi katta insonlar orasida ko‘p kuzatildi.

Buni so‘zi *muni* tarzida talaffuz qilinishini ham ko‘p joylarda uchratdik. Masalan:

Muni işlätkännän kijin žājigä qāj, män qidirip jurmäj.

Buxoro o‘g‘uz shevalari boshqa dialektlardan farq qiladi ancha. Shuning uchun Buxoro turkman shevalari haqida xulosaga kelishda shoshmaslik kerak. Chunki bu hududdagi mahalliy turkmanlarning turmush tarzi, kundalik mashg‘ulotlari va boshqa madaniy-iqtisodiy holatlari buxorolik o‘g‘uzlarniki bilan bir xil hisoblanadi.

Shuning uchun ham ularning turkmanlarga ta‘siri bor. Misol tariqasida aytadigan bo‘lsak, unlilarning lab ohangdoshligi turkman adabiy tilida buxorolik o‘g‘uzlarnikiga qaraganda ancha kuchli. Buxoro viloyati turkmanlarida esa bu hodisa mahalliy o‘g‘uz o‘zbek shevalarniki singari kuchsiz, cho‘ziqliklar ham asosan birinchi bo‘g‘inda yuz beradi. Ushbu holat faqatgina Buxoroda emas, aksincha, Xorazm turkmanlarida ham uchraydi.

Buxoro o‘g‘uz shevalarida ham so‘zlarga affiks qo‘shilganida aynan qo‘shimchalarda bo‘ladigan fonetik o‘zgarishlarni ko‘p uchratishimiz mumkin.

Körpājä örānip jāt – ko‘rpaga o‘ranib yot



Ushbu misolda –ga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi ham asosga qo‘shilib o‘z shaklini yo‘qotdi.

Körpächäjä ötir – ko‘rpachaga o‘tir

Bu misolda ham xuddi shunaqa affiksda o‘zgarishni kuzatamiz. Demak, shu misollarni o‘zidan ham bilsak bo‘ladiki, Buxoro o‘g‘uz shevalarida ham jo‘nalish kelishi – ga o‘z shaklini ko‘p hollarda o‘zgartiradi.

Sixakti opke- qirg‘ichni olib kel

Bu yerda ham tushum kelishigi qo‘shimchasi o‘z shaklini yo‘qotgan.

Lövlādi tāzälāš keräk – loviyani tozalash kerak

Yuqoridagi misolda ham tushum kelishigining boshqa shaklga o‘tganini ko‘rsak bo‘ladi. Demak tushum kelishi qo‘shimchasi ham o‘z shaklini ko‘pincha o‘zgartirib turarkan.

Ānāmā āldim – onamga oldim. Bu yerda ham jo‘nalish kelishigi shakli butunlay o‘zgaradi.

Āpämiñ kitāpi – opamning kitobi. Bu yerda ham qaratqich kelishining o‘zgarishini ko‘rsak bo‘larkan.

Iki žörä bächäliktän birä kättä bölänlä. Dävr kelip ikkäläsijäm öz bāxtini izläp jölä çiqan. Āllidän ikki jöl uçrājän. Biri bāšqa tāmāngä, biri bāšqa tāmānā jöl ālän. Ulärdän biri šähärmä-šähär jurän, ilm-hunär orttirän, ikkinčisi bārän jerinä pādšāh säjlāš uçun uçirilän semury quš tāsādifän uniñ bāšijä qönän.

Ko‘rinib turibdiki, *Āllidän* so‘ziga to‘xtalsak, old so‘ziga egalik qo‘shimchasi qo‘shilishi natijasida ushbu so‘z talaffuzi shevada o‘zgaradi. Yoki bundan tashqari *tāmānā* so‘ziga e‘tibor qaratsak ham aynan shu o‘zgarishni ko‘rishimiz mumkin.

Yoki Buxoro qarluq shevasida uchrovchi *buppä-butun* so‘ziga to‘xtalsak, ushbu so‘zda ham 1-uzvda uchrovchi reduplikatsiya jarayoniga misol bo‘la oladi.

Bibim bijiñčämni buppä-butun ālip kelilä.

Bundan tashqari biz istehzoli reduplikatsiyani ham kuzatishimiz mumkin:

Bāj-māy –unchalik boy bo‘lmagan odam ma’nosida qo‘llaniladi.

Öqigän-möqigän- ilmi deb o‘ylangan insonga nisbatan qo‘llaniladi. [aslida bunday bo‘lmagan holatda]

Yana biz shubha va befarqlik ifodalovchi reduplikatsion jarayonlarni ham kuzatishimiz mumkin. Bunday shakllar noaniqlik, shubha yoki beparvolik ma’nosini bildiradi:

Gäp-päp, gäp-säp so‘zlarini olsak, har ikkala so‘zda ham 2-uzvda uchrovchi reduplikatsiyani uchratamiz va bu so‘zlar qandaydir noaniqlik, shubha va

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



beparvolikni payqaymiz, ya’ni *gap-so‘z* va *mish-mish* ma’nosida bu so‘zlar Buxoro shevasida unumli ishlatiladi.

Taqdim etib, sanab o‘tish ma’nolarini beradigan reduplikatsion o‘zgarishlar ham uchrab turadi:

Nān-pān, čāj-pāj, kölā-pölā [sho‘rdanak] kerājmāsmi?

Yuqoridagi misolda ko‘rib turganimizdek, bu so‘zlar o‘z-o‘zidan sanab o‘tish ma’nosini bildirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуазизов А.А. Ўзбек тилининг фонологияси ва морфонологияси. Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
2. Bruce Hayes [2009] “Morphophonemic Analysis” Introductory Phonology
3. Леви-Строс. Структурная антропология. М., 1985.
4. М.М. Mirzayev “O‘zbek tilining Buxoro gruppasi shevalari” “Fan” nashriyoti Toshkent – 1969.
5. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/m/morfonologiya/>
6. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – B. 152